

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIV TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

TERMIZ DAVLAT UNIVERSITETI



JAHON ADABIYOTI

O'QUV DASTURI

**Bilim sohasi:** 200 000 – San'at va gumanitar fanlar  
**Ta'lim sohasi:** 230 000 – Tillar  
**Ta'lim yo'nalishi:** 60230100 - Filologiya va tillarni o'qitish (o'zbek tili)

Termiz – 2024

Fan/modul kodi JA 2 10		O'quv yili 2024-2025	Semestr 1, 8	ECTS – Kredittlar 10	
Fan/modul turi Majburiy		Ta'lim tili O'zbek		Haftadagi dars soatlari 4	
1.	Fanning nomi	Auditoriya mashg'ulotlari (soat)	Mustaqil ta'lim (soat)	Jami yuklama (soat)	
		"Jahon adabiyoti"	120	180	300

2.	<p><b>I. Fanning mazmuni</b></p> <p>Fanni o'qitishdan maqsad - jahon adabiyoti namunalarini bir butunlikda, jahoniy poetik tamoyillar asosida o'rganish, milliy adabiyotni boshqa millatlar badiiy tafakkuri bilan mushtarak hodisa sifatida talqin etish, jahon adabiyotining yetuk namoyandalari biografiyasi, adabiy muhiti, poetik mahorati, uslubi, badiiy konsepsiyasi masalalarini o'rganishdan iborat.</p> <p>"Jahon adabiyoti" fanining vazifalari:</p> <ul style="list-style-type: none"> <li>- talabada jahon adabiyoti bo'yicha badiiy tahlil malakasini shakllantirish;</li> <li>- dunyo adabiyotidagi badiiy asarlarning ichki poetik strukturasi, semantik munosabatlarini anglash ko'nikmasini hosil qilish;</li> <li>- badiiy adabiyotda ijodkor shaxs, ijodiy individuallik, individual uslub tushunchalarini anglatish;</li> </ul> <p>Fan bo'yicha talabalarning bilim, ko'nikma va malakalariga quyidagi talablar qo'yiladi:</p> <ul style="list-style-type: none"> <li>-jahon xalqlari adabiyotining badiiy, tarixiy, falsafiy, ruhiy-ma'naviy omillari haqida <i>bilimga</i>;</li> <li>-mif va adabiyot munosabati masalasini o'rganish;</li> <li>-jahon xalqlari madaniy-ma'naviy hayotida muhim o'rin tutgan adabiy davrlarni o'rganish <i>ko'nikmasiga</i>;</li> <li>-adabiy oqim va yo'nalishlarning shakllanish tarixi, nazariy-estetik asoslari, adabiy-tarixiy jarayonda tutgan o'mi va ahamiyatini yoritib berish;</li> <li>-jahon adabiyoti tadrijida sezilarli iz qoldirgan ijodkorlar biografiyasi, asarlari, adabiy muhiti, uslubi va badiiy mahoratini ilmiy talqin etish;</li> <li>-jahon adabiyotining eng sara namunalari misolida adabiy turlar va janrlar takomili muammolari haqida fikr yuritish <i>malakasiga ega bo'lishi lozim</i>.</li> </ul> <p><b>II. Asosiy nazariy qism (ma'ruza mashg'ulotlari)</b></p> <p><b>III. Fan tarkibiga quyidagi mavzular kiradi:</b></p> <p style="text-align: center;"><b>1-mavzu: Jahon adabiyoti faniga kirish. Fanning maqsad va vazifalari.</b></p> <p>Jahon adabiyoti tushunchasi va uni o'rganish prinsiplari. Jahon adabiyoti namunalarining yetakchi kriteriyalari. Mif va adabiyot munosabati. Jahon adabiyotini davrlashtirish; - qadimgi davr eposi, lirikasi va dramasi xos</p>
----	---

<p>takomili muammolari haqida fikr yuritish <i>malakasiga ega bo'lishi lozim</i>.</p> <p><b>II. Asosiy nazariy qism (ma'ruza mashg'ulotlari)</b></p> <p><b>III. Fan tarkibiga quyidagi mavzular kiradi:</b></p> <p style="text-align: center;"><b>1-mavzu: Jahon adabiyoti faniga kirish. Fanning maqsad va vazifalari.</b></p> <p>Jahon adabiyoti tushunchasi va uni o'rganish prinsiplari. Jahon adabiyoti namunalarining yetakchi kriteriyalari. Mif va adabiyot munosabati. Jahon adabiyotini davrlashtirish; - qadimgi davr eposi, lirikasi va dramasi xos nazariy muammolar; -o'rta asrlar adabiyoti ma'naviy-madaniy, adabiy-estetik tamoyillar; - uyg'onish adabiyotiga doir poetik qonuniyatlar; - klassitsizm estetikasi masalalarini; - uyg'onish realizmining jahon adabiyotida tutgan o'mi; - sentimentalizm, romantizm adabiyotining mushtarak va farqli jihatlari; -realizm va modernizm adabiyotining o'zak muammolarini bilishi kerak; -jahon adabiyoti namunalarini nazariy planda tadqiq qilish.</p> <p style="text-align: center;"><b>2-mavzu: Mif va badiiy ijod.</b></p> <p>Mifologik maktab: tarixi, vakillari. Aka-uka Grimmlarning "Nemis mifologiyasi" asari. Myuller asarlarida mifologik talqin. Losevning mifologiyaga doir qarashlari. Mif va falsafa, mif va estetika, mif va din. Mif va mif poetikasi jahon adabiyotini o'rganishning muhim asosi sifatida. Mifda kaos va kosmos tushunchalari, ularning badiiy adabiyot tarkibida bajaradigan vazifasi. Mifning shakllari: tabiat, jamiyat, inson, o'tmish, kelajak, yaratilishi va inqiroz haqidagi miflar. Mifologik maktab, mohiyati, asoschilari, metodologik prinsiplari. Mifologik asos, mifologik suyet, mifologik unsur tushunchalari. Ayni tushunchalarning adabiy-tarixiy jarayon bilan munosabati. Mifda kaos va kosmos tushunchalari, uning badiiy adabiyot bilan bog'liqligi. Frezer talqinida mif.</p> <p style="text-align: center;"><b>3-mavzu: Qadim Sharq va G'arb adabiyot: epos va lirika.</b></p> <p>Sharq va G'arb adabiyotining Antik davri: qiyos masalasi. Davrga xos adabiyotning geografik hududlari, xronologiyasi. Antik davr eposi: "Ramayana", "Maxabxorat", "Iliada", "Odisseya", "Alpomish", "Go'ro'g'li", "Manas" asarlarining mazmuni va poetik o'ziga xosliklari. Antik lirika janrlari. She'riy vaznlar masalasi. Antik drama: Esxil, Yevripidlar ijodi. Tragediya, komediya janrlarining antik namunalari. Tragediyaning rivoiy, madaniy-tarixiy va nazariy asoslari. Antik davr didaktikasi. Sharq va G'arb didaktikasining umumiy hamda xususiy jihatlari. Didaktik talqinda shaxs, zamon va axloqiy omillarning o'mi. Gesiodning "Mehnat va kunlar" asari. "Devonu lug'otit turk" asarida didaktik she'rlar. Sharq didaktikasining yetakchi tamoyillari.</p> <p style="text-align: center;"><b>4-mavzu: Antik davr dramasi</b></p> <p>Tragik janr. Tragediyaning rivoiy, falsafiy, psixologik va nazariy</p>
---

omillari. Sofoklning "Shoh Edip" tragediyasida obrazlar tizimi. Edip "gunohi"ning jahon adabiyotshunosligida talqin etilishi. Asarda tragik vaziyatlarning o'ziga xosligi. Yunon komediyasi: komediya va komizm masalasi. Aristofan komediyalari. Attika davri komediyalari. Menandr ijodi. Sharq xalqlari dramasi: xalq teatrlari, masxarabozlik va jahon dramasi.

#### 5-mavzu: Antik Rim adabiyoti

Plavt va uning "Xumcha", "Maqtanchoq jangchi" komidiyalarida komik obrazlar talqini. "Xumcha" asari va o'zbek adabiyotida xasis obrazi. "Oltin devor"da komiklik va Plavtning "Xumcha" asari. Progopolinik komik obraz sifatida. Vergiliy ijodi. "Eneida" asarining yaratilishida Avgust siyosatining o'mi. Vergiliyning ijtimoiy qarashlari. "Eneida" asarining Gomer ijodi bilan munosabati. Asarning ijtimoiy mohiyati. "Eneida"da mifologik talqin. Ovidiyning "Qahramon ayollar", "Metamorfozalar" asarlarida real voqelik va mifologik talqin uyg'unligi.

#### 6-mavzu: O'rta asrlar adabiyoti

O'rta asrlar adabiyoti tushunchasi, uning Sharq va G'arb adabiyotida tutgan o'mi. O'rta asrlar G'arbiy Yevropa eposi: "Roland haqida qo'shiq", "Sid haqida qo'shiq", "Nibelunglar haqida qo'shiq" asarlari, ularda Sharq mavzusi talqini. Kelt xalqlari sagalari. Sagalarning yaratilishi: druidlar va flidlar. Sagalar xukurasi, mavzu doirasi. Sagalarda Sharq motivlari. Sagalarning cherkov xodimlari tomonidan yozib olinishi. Sagalarda diniy, xurofiy va magik unsurlar. O'rta asrlar yozma adabiyoti. Lirik va uning mavzular ko'lam. Lirik uslubdagi o'zgarishlar. Kurtuaz lirikasi. O'rta asrlar dramasi, Antik drama bilan umumiy va farqli jihatlari. Bu davr dramasi "Injil" rivoyatlarining o'mi. Sahna talqinidagi o'ziga xosliklar: sahna, dekoratsiya, aktyorlar, makon va zamon masalalari. Liturgik tushunchasi. Misteriyalar. Ritsar romanchiligi. Ritsar romanlarining syujet qurilishi. Ritsar romanlarida sarguzasht va fantaziyaning ahamiyati, ularning folklor asarlari bilan munosabati. Ritsar romanlarida "uchlik" tushunchasi va uning roman syujeti bilan bog'liqligi.

#### 7-mavzu: Sharq va G'arb Uyg'onish adabiyoti

Geografik, xronologik chegaralari. Falsafiy, estetik, poetik, ijtimoiy, ma'naviy omillari. Sharq va G'arb uyg'onishi muammosi: mushtarak va umumiy jihatlari. Ushbu muammoning jahon adabiyotshunosligida talqin etilishi. Sharq va G'arb Uyg'onish adabiyotining mushtarak va farqli jihatlari.

Italiyada Uyg'onish adabiyotida falsafiy va ijtimoiy konsepsiyalar: "Gumanizm", "universal odam", "Xotin-qizlar emansipatsiyasi" masalalari. Dante ijodining ilk davri. An'anaviy lirika. "Yangi hayot" Dante lirikasining Yangi bosqichi sifatida. "Ilohiy komediya" asarining o'rganilishi masalasi. Asar ilmiy, badiiy, falsafiy asoslarining shakllanishida Sharq badiiy tafakkurining o'mi. Dante va Bakochcho. Dante va Petrarka ijodi.

Ispan Uyg'onishning milliy va Antik asoslari. Ispaniya adabiy-ijtimoiy hayotida O'rta asrchilik an'analari. Bu davr adabiyotida epos, drama va folklorning o'mi. "Don Kixot" jahon adabiyotining yuksak namunasi sifatida. Asarning ijtimoiy, milliy va biografik omillari. Asarning ritsar romanlari bilan munosabati. "Don Kixot"da telba, qiziqchi va ayyor obrazlari.

XV-XVI asrlar Fransiyada ijtimoiy muhit. Uyg'onish davri fransuz lirikasi, eposi va dramaturgiyasi. Fransua Rable biografiyasi va ijodi. "Gargantuya va Pantgryuel" asari. Asarda kinoya va komiklik. Asar haqida M.Baxtin fikrlari. Uyg'onish davri ingliz lirikasi, eposi va dramasi. Adabiy muhit. K.Marlo ijodi. Dramaturgiya va teatrchilik. Globus teatri. Uilyam Shekspiring hayot yo'li. Shekspir ijodida lirika. Sonetlari. Dramaturgiyasi. Shekspir drama asarlarini davrlashtirish. Shekspir dramalarida komiklik. Shekspir tragediyalarida qahramon, voqelik, ramzlarining o'mi. Shekspir tragikomedyalari. "Qirol Lir"da masxara obrazi. Asarda "O'talar va bolalar" muammosi talqini. Asar syujetida peyzaj unsurlarining psixologik vazifasi. Tragik obrazlar (Qirol Lir, Edgar) talqinida pozitsiyasi. "Qirol Lir"da "katarsis". Shekspir va Tolstoy, Shekspir va Sharq badiiy tafakkuri. "Gamlet" tragediyasida tragik qahramon talqini.

#### 8-mavzu: XVII-XVIII asrlar G'arbiy Yevropa adabiyoti

Bu davr adabiyotining turli adabiy-falsafiy qarashlarga boy ekanligi. Turli adabiy oqim va yo'nalishlarning maydonga kelish sabablari. Ularning falsafiy va estetik omillari. Ijtimoiy hayotdagi o'zgarishlar va adabiyot. XVII-XVIII asrlar G'arbiy Yevropa adabiyotida o'zaro va tashqi ta'sirlarning ahamiyati.

#### 9-mavzu: XVII asr nemis adabiyoti

XVII asr nemis adabiyotida urush mavzusi talqini. 1618-1648-yillarda bo'lib o'tgan urushning Yevropa xalqlari ma'naviy, ijtimoiy hayotida tutgan o'mi. Ayni voqealarning badiiy adabiyotda aks etishi. Nemis yozuvchisi Martin Opis(1597-1639)ning ijtimoiy-adabiy faoliyati. Uning "Nemis poeziyasi haqida" deb nomlangan kitobida urush izdan chiqargan milliy ma'naviyatni tiklash masalasining aks etishi. Bunda nemis xalqi folkloridan, Antik davr madaniyatidan foydalanish haqidagi fikr-mulohazalar. XVII asr nemis adabiyotida urushni qoralash mavzusi. Paul Felemingning "Yangi, 1633-yilga madhiya" asarida urushning real manzaralari aks etishi. Urush odami muammosining qo'yilishi. Andreas Grifius ijodida urushning ma'naviy inqiroz manbai sifatida talqin etilishi. Grimmelsgauzen (1625-1676) ning "Simplitsius Simplitsissimus" (Soddalar soddasi) satirik romanida urushga kinoyaviy munosabat. Asarda Simplitsius obrazi. Asar badiiyati va uslubi. Nemis dramaturgiyasida urush mavzusi. Kaspar fon Loenshteyn pyesalari. Andreas Grifiusning urushga doir tragediyalarida diniy pafosning yetakchiligi. Asarda yalmog'iz, jinlar, arvoh kabi personajlarning badiiy funksiyasi.

### 10-mavzu: XVII asr Ispan adabiyoti

Bu davr ispan adabiyotida uch adabiy yo'nalish: Uyg'onish realizmi, klassitsizm, barokko. Uyg'onish realizmi va Lope de Vega ijodi. "Qo'zibuloq" realistik asar sifatida. Asaming syujeti, obrazlari. Veganing estetik qarashlari. Klassitsizm estetikasining inkori, pyesa strukturasi haqida mulohazalari. Sonetlari, epik dostonlari. Ispan klassitsizm adabiyoti. Bu adabiyotning milliy ruhi va xalq maishiy hayoti bilan birikib ketganligi. Barokko oqimi: uning antik asoslari, o'tmish adabiyotini kult darajasiga ko'tarish, adabiyot xoslar uchun g'oyasi. Gongoro ijodi. Konseptizm estetikasi. Alonso Ledisma, Luis de Gevara, Baltasar Grasmanlar ijodi.

### 11-mavzu: Fransuz adabiyoti

Fransiyada klassitsizm estetikasi va milliy madaniyat konsepsiyasi. Fransuz klassitsizmining falsafiy-estetik asoslari. (Dekart, Per Gasendi, Moler, Bualo qarashlari). Kornel, Rasin, Molyerlar ijodida klassitsizm an'analari. Klassitsizm estetikasining asosiy tamoyillari: uch birlik, adabiy janrlar masalalari. Sharq va G'arb klassitsizmi qiyosi: umumiy va farqli jihatlar.

### 12-mavzu: Ingliz adabiyoti

Ingliz ijtimoiy-madaniy hayotida uyg'onish gumanizmi va hayot dialektikasi. F.Bekon, E.Spenser, V.Shekspir estetik qarashlari talqini. B.Jonson, Milton, D.Uinstellilar ijodida «metafizik maktab» an'analari. Idealistik motivlar va ritmik an'analari talqini. 1948-yildan keyingi «yangi dvoryanlar» publitsistik prozachiligi (Jon Drayden-1631-1700, Uilyam Uicherli-1642-1716, Jon Benyan-1628-1688, Semyuel Betler-1612-1681, Jon Milton-1608-1674).

### 13-mavzu: XVII-XVIII asrlar italyan adabiyoti.

Jambatist Mariko (1569-1625) va "marimiza" oqimi. Italyan adabiyotida badiiy shakl soddaligi yo'lidagi harakatlar. Tarkvato Tassoga qaytish. Fulvio Testi ijodida ijtimoiy mavzu talqini. Vinchenko Filikay (1642-1707) ning diniy she'riyat. Alessandro Tasoni (1565-1635) ning satirik she'rlari: "Turli fikrlar", "Petrarka she'riyat haqida o'ylar", "O'g'irlangan chelak" asarlari. XVIII asr italyan komediyana visligi. Galtoni (1707-1793), Gossi (1722-1806) lar ijodi.

### 14-mavzu: XVIII asr Yevropa ma'rifatchilik adabiyoti

Nemis ma'rifatchiligi. Milliy birlik g'oyasi. I.Kantning "Ekin tafakkur" falsafasi. Fixtning subektiv idealizmi. Gegl falsafasi. Uning "Rux fenemenologiyasi" va "Mantiq ilmi" asarlari. Nemis klassik falsafasining asosi sifatida, Nemis ma'rifatparvar adiblari: Xristof Goshed (1700-1766), Fridrix Gotlib Klobshok (1724-1803), Vinkelman (1717-1768), Lesing (1729-1781).

### 15-mavzu: Fransuz ma'rifatchiligi

Nazariy-estetik asoslari: Mentsening "Did", Volterning "Did saroyi".

Didroning "Aktyor haqida paradoks" asarlari. Adabiyotda ijobiy qahramon. ijtimoiy tarbiya, milliy madaniyat masalalari. Teatrchilik harakatlari: Volter, Didro, Merse, Bomarsheklar komediyalari.

### 16-mavzu: Yevropa sentimentalizmi estetikasi

David Gartli, J.J.Russo, Joroj Bekrli, David Yumlarning falsafiy qarashlari. Sentimental estetikaning o'ziga xos jihatlari. E.Yung, J.Tomson, L.Sternlar ijodi.

Gyotening "Yosh Verterning izirolari" asarida sentimental falsafa talqini.

XVIII asrning 70-80-yillaridagi "Bo'ron va tazyiq" harakati va F.Shiller ijodi. Harakatning ijtimoiy tabiati. Klengerning "Bo'ron va tazyiq" pyesasi shtyurmerlik harakatining asosi sifatida. Ijtimoiy va hissiy erkinlik masalasi. Shilleming "Qaroqchilar", Byurgerning "Lenora", Gyotening "Korinflik kelinchak" asarlarida shtyurmerlik g'oyalari talqini. Shilleming falsafiy va nazariy-estetik qarashlari. "Makr va muhabbat", "Don Karlos", "Vallenshteyn" asarlari. Shtyurmerlik harakatida xalqchillik g'oyasi.

### 17-mavzu: XIX asr nemis va ingliz romantizmi

Yevropa romantizmining ikki ko'rinishi: idealistik va taraqqiyparvar romantizm. Ularning ijodida xalq va milliy birlik tamoyili. Klassitsizmga salbiy munosabat, nemis romantizmi: A.Shamiso, aka-uka Grimlar. Ingliz romantizmi: Bayron ijodi. Nemis romantizmidagi: "Ko'l maktabi" (Vordsvord, Sadtli, Kolrij), inqilobiy romantizm (Bayron, Shelli), "London romantiklari" oqimlari. Amerika tarixiy romanchiligi. Fenemor Kuper ijodi. romantizm va realizm sintezi.

### 18-mavzu: Yevropa tanqidiy realizmi

P. Beranje, Stendal, P. Marime, Balzak va Charlz Dikkenslar ijodida jamiyat va shaxs muammolarining badiiy talqini. XX asr birinchi yarmi Yevropa va AQSh tanqidiy realizm adabiyoti. Gi de Mopassan tanqidiy realizmi. Nemis adiblari Tomas Mann, Bernard Shoular ijodida realistik talqin tamoyillari. AQSh adabiyotida satira va yumor. Mark Tven ijodi. Jek London ijodida Spanser va Nisshe falsafasi talqini. R.Rollan (Fransiya), Lui Aragon (Fransiya), E.Xenimguey, T.Drayzer, (AQSh), Anna Ziggers (Germaniya), Jeyms Oldrij (Angilya)lar ijodida ijtimoiy falsafiy, maishiy muammolarning yoritilishi.

### 19-mavzu: Realizm estetikasi va naturalizm

Ijtimoiy-falsafiy asoslari. Fransuz realistik adabiyoti. P.Elyuar, M.Riffo, P.Shobbarlar ijodida "fojeiy gumanizm" motivlari. 50-yillar ispan adabiyotida "tremendizm" yo'nalishi: K.Seli, K.Laforet ijodi. Ispan "Yangi romanchiligi": X.Goytoso, A.Matutelar ijodi. Naturalizm estetikasi asosida Ogyust Kont va Ippolit Ten falsafiy qarashlari yotishi. Shaxs faoliyatida biologik, genetik omillarning ustun qo'yilishi. Naturalistik badiiy tasvirning o'ziga xosliklari. Naturalistik adabiyot vakillari: aka-uka Gonkurlar, Emil Zolyalar ijodi.

### 20-mavzu: Jahon modernizm adabiyoti

Modernizm estetikaning tarixiy ildizlari va ijtimoiy-falsafiy omillari. Jahon modernizmining adabiy, falsafiy yo'nalishlari: simvolizm, futurizm, dadaizm, syurrealizm, abstraksionizm, ekzistensializm, absurdizm. Fransuz modernizmi. Inson hayotining ekzistensial talqin etilishi. J.P. Sartr, A.Kamyu, S. de Bouvarlar ijodi. 50-yillar fransuz "yangi romani": A.Rob-Griye, N.Sorrot, M.Byutor asarlari. Fransuz "absurd teatri": E.Ionesko, S.Bekket, A.Adamovlar ijodi. 60-80-yillar ispan profronkist romanlari: B.Kassaesa, X.Goytolo, A.Mushetilar ijodi. Ayres Merdok, Uilyam Goldinglar ingliz modern adabiyoti namoyondalari sifatida. Nemis modern adabiyotida metafizik falsafa asosida maydonga kelgan "metaadabiyot" (Ernst Yunger, Arno Shmid), fransuz modernizmi (Martin Valzer), freydzizm qarashlarning badiiy talqinlari (S.Sveyg). AQSh modern adabiyoti: ekzistensializm, freydezm, dzen-buddizm g'oyalari: U.Stoyron, R.Elisson, D.Selenjer, U.Folknerlar ijodi.

#### III. Amaliy mashg'ulotlar bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar

*Amaliy mashg'ulotlar uchun quyidagi mavzular tavsiya etiladi:*

1. "Qadim Gretsiyaning afsona va miflari", "Hind miflari" asarlari tahlili.
2. Sharq va G'arb eposlari qiyosi.
3. "Zanjirband Prometey" asarida mifologiyaning o'imi.
4. Kelt xalqlari epik ijodi: bardlar va flidlar tomonidan ijod etilgan sagalar.
5. O'rta asrlar Yevropa xalqlari eposi.
6. Uyg'onish davrining falsafiy, tarixiy va badiiy omillari.
7. Dantening "Ilohiy komediya" asarining strukturasi va obrazlar tizimi.
8. Fransua Rable va Fransuz folklori
9. Servantesning "Don Kixot" asarida an'ana va yangilik.
10. Shekspir tragediyalarida shaxs masalasi
11. D.Defoning "Robinzon Kruzo" romanida ma'rifat g'oyasi.
12. "Gulliveming sayohatlari" romanida J.Svift fantastikasining realistik

negizi.

13. F.Shilleming "Qaroqchilar" tragediyasida erksevarlik g'oyalarning ilgari surilishi.
  14. Gyote "Faust" asarining asosiy g'oyasi.
  15. Balzak asarlarida umuminsoniy qadriyatlar.
- #### IV. Seminar mashg'ulotlar bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar
- Seminar mashg'ulotlar uchun quyidagi mavzular tavsiya etiladi:*
1. Gomerning "Iliada" va "Odiseya" asarlarining badiiy xususiyatlari.
  2. Sofoklning "Shoh Edip" va Firdavsiyning "Shohnoma" asaridan "Zol" qissasi tahlili
  3. Plavt ijodi va "Xumcha" asari.
  4. A.Firdavsiyning "Shohnoma" va Navoiyning "Tarixi muluki ajam" asarlarida tarixiy shaxslar
  5. A.Dante "Ilohiy komediya" va A.Oripovning "Jannatga yo'l" asarlarining mushtarak va o'ziga xos xususiyatlari
  6. Servantesning "Don Kixot" asarida qahramon obrazi masalasi.
  7. U.Shekspir "Qirol Lir" va A.Fitratning "Abulfayzxon" tragediyalarida syujet, obraz, detal tipologiyasi
  8. Shekspir va Petrarka sonetlari qiyosiy tahlili
  9. Molyerning "Xasis" asarida xasis obrazi.
  10. Bualoning "Poetik san'at" asari.
  11. F.Shiller "Makr va muhabbat", Hamzaning "Zaharli hayot yohud ishq qurbonlari" asarlari syujet qurilishi.
  12. Gyote "Yosh Verterning iztiroblari" va Dostoyevskiyning "Oydin tunlar" asarlarida sentimental qahramon olami.
  13. Pushkinning "Kapitan qizi", A.Qodiriyning "O'tkan kunlar" asarlari tahlili.

14. Ch.Dekkins "Oliver Tvistning boshidan kechirganlari" va G'.G'ulomning "Shum bola" asarlarida qahramon obrazi muammosi.

15. Stendal "Qizil va qora", O'.Hoshimovning "Tushda kechgan umrlar" asarlari qiyosiy tahlili.

16. A.Kamyu "Begona" va M.M.Do'stning "Galatepaga qaytish" asarlarida qahramon ruhiyatining o'ziga xosligi.

17. J.Joys "Uliss", T.Rustamovning "Kapalaklar o'yini" asarlarida obraz va uslub muammosi.

#### V. Mustaqil ta'lim va mustaqil ishlar

*Mustaqil ta'lim uchun tavsiya etiladigan topshiriqlar:*

1. "Bilgamish" eposi
2. Qadimgi Sharq xalqlari mifologiyasi: "Hind miflari" asarining tahlili.
3. Gomerning "Iliada" asarlarida mifologik syujetlarning o'mi.
4. "Odissey" asarining badiiy xususiyatlari
5. "Ramayana" eposida "uch olam" konsepsiyasi
6. "Maxabxarata" asarida "alplik tizimi".
7. "Kalila va Dimna" asarining didaktik xususiyatlari.
8. "Shoh Edip"da tragizm muammosi.
9. "Medeya" tragediyasida qahramon va muhit konflikti.
10. "Zanjirband Prometey" asarida tragizm.
11. Plavt komediyalari.
12. Seneka maktublari.
13. "Shohnoma"da Zahhok obrazi: mifologik, diniy, badiiy talqin sintezi sifatida.
14. Kelt xalqlari sagalarida sharqona syujetlar.
15. O'rta asr eposlari. "Sid haqida qo'shiq", "Rolland haqida qo'shiq"

asarlarda qahramon obrazi

16. German xalq eposining badiiyati.
17. O'rta asr shahar adabiyotida janrlar.
18. Fransua Viyon ijodi.
19. Italyan Uyg'onish adabiyotining o'ziga xos xususiyatlari: Bokachcho va Petrarka ijodi.
20. Dante ijodiga sharq badiiy-falsafiy tafakkurining ta'siri.
21. Dantening "Xalq tili haqida" asari
22. Kristofer Marloning "Buyuk Temur" asari.
23. F.Rable va folklor munosabati masalasi.Shekspirning "Qirol Lir" asarida masxara obrazi.
24. "Gargantuya va Pantagryuel" asarining g'oyaviy-badiiy xususiyatlari
25. Ispan Uyg'onish adabiyotida Servantes ijodining o'mi.
26. "Don Kixot" romanining g'oyaviy-badiiy xususiyatlari.
27. "Qirol Lir" va "Abulfayzxon" asarlarida ijtimoiy muhit va konflikt.
28. "Makbet" tragediyasida Makbet obrazi.
29. Shekspir tragediyalarida qirol obrazi.
30. D.Defoning "Robinzon Kruzo" romani badiiyati.
31. "Gulliverning sayohatlari" romanida giperbolaning o'mi.
32. F.Shillerning "Qaroqchilar" tragediyasida tragik obrazlar.
33. Gyote "Faust" asarida umuminsoniy g'oyalar.
34. Bayron ijodida romantik obrazlar.
35. Stendalning "Qizil va qora" romanida J.Sorel obrazi.
36. Balzak asarlarida umuminsoniy suammolar talqini.
37. F.Dostoyevksiyning "Jinoyat va Jazo" romanida inson tabiati talqini.

	38. E.Xeminguey ijodida inson va borliq muammosi talqini. 39. F.Kafkaning "Begona" asarida ekzistensializm talqini.
3.	<p><b>VI. Ta'lim natijalari (shakllanadigan kompetensiyalar)</b></p> <p>Jahon adabiyoti tushunchasi, ilmiy-nazariy kriteriyalari, tarixiy shakllanish omillari, davrlari, tipologiya masalalari, Sharq va G'arb adabiyotidagi spetsifik umumiylik va individuallik masalalari. Qadim Shumer, Hind, Misr, Xitoy, Turk, Eron va Yunon adabiyotiga xos mislar, og'zaki va yozma adabiyot namunalari, ularning janr xossalaridan xabardor bo'ladi; epos syujeti, kompozitsion xususiyatlari, obrazlar tizimining tarixiy asoslari, dramatik tur genezisi, qadim lirikaning poetik kanonlari, qadimgi romanlar badiiyati, epos va boshqa janrlar bilan poetik aloqadorligi haqida nazariy bilimga;</p> <p>"Bilgamish", "Ramayana", "Maxabxarata", "Iliada", "Odissey", "Alpomish", "Go'ro'g'li", "Shohnoma", "Shoh Edip", "Zanjirband Prometei", "Medeya", "Eneida", "Xumcha", "Ilohiy komediya", "Qiroli Lir", "Gargantua va Pantagryuel", "Don Kixot", "Faust", "Yo'qotilgan jannat", "Topilgan jannat", "Poetik san'at", "Sentimental sayohat", "Yevgeniya Grande", "Martin Iden", "Uliss" kabi asarlarni Sharq adabiyoti namunalari bilan qiyosiy tahlil etish, adabiy oqim, ijodiy metodlar mohiyatini tushunish ko'nikmasiga;</p> <p>Yangi bilimlarni mustaqil egallay bilish, o'z ustida ishlash va mehnat faoliyatini ilmiy asosda tashkil qila olish kabi umumiy, jahon adabiyoti tarixining taraqqiyot tamoyillari, davr adabiyotini yuzaga keltirgan omillar, qonuniyatlar, o'ziga xos xususiyatlarni o'rganish malakasi va bilimiga ega bo'lish; jahon adabiyoti taraqqiyotining asosiy yo'nalishlarini belgilashga doir kasbiy kompetensiyalarga ega bo'ladi.</p>
4.	<p><b>VI. Ta'lim texnologiyalari va metodlari:</b></p> <ul style="list-style-type: none"> <li>• blis-so'rov;</li> <li>• guruhlarda ishlash;</li> <li>• taqdimotlarni qilish;</li> <li>• jamoa bo'lib ishlash;</li> <li>• klaster.</li> </ul>
5.	<p><b>VII. Talabalarning kreditlarni olish tartibi</b></p> <p>O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 31-dekabrda 824-sonli qarori bilan tasdiqlangan "OTMlarda o'quv jarayoniga</p>

	<p>kredit-modul tizimini joriy etish tartibi to'g'risida Nizomning 15- va 30-bandlariga asosan Jahon adabiyoti fanidan 150 soat (20 soat ma'ruza, 20-soat seminar, 20 soat amaliy, mustaqil ta'lim 90) <u>o'quv yuklamasini o'zlashtirgan</u>, fan dasturi (sillabus)da belgilangan baholash tartibiga ko'ra <u>ijobiy baholanib kasbiy kompetensiyalarni yetarli darajada egallagan</u> talabaga __ 2-semestrda 4 kredit beriladi.</p> <p>Talaba belgilangan <u>ta'lim olish natijalariga erisha olmagan taqdirda kreditlar berilmaydi.</u></p> <p>Talabalarning bilimni baholash O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirining 2018-yil 9-avgustdagi 19-2018-son buyrug'i bilan tasdiqlangan "Oliy ta'lim muassasalarida talabalar bilimni nazorat qilish va baholash tizimi to'g'risida"gi Nizom talablari asosida belgilanadi.</p> <p><b>Talabalarning bilimni baholash mezonlari:</b></p> <p>talaba mustaqil xulosa va qaror qabul qiladi, ijodiy fikrlay oladi, mustaqil mushohada yuritadi, olgan bilimni amalda qo'llay oladi, fanning mohiyatini tushunadi, biladi, ifodalay oladi, aytib beradi hamda fan bo'yicha tasavvurga ega deb topilganda – 5 (a'lo) baho;</p> <p>talaba mustaqil mushohada yuritadi, olgan bilimni amalda qo'llay oladi, fanning mohiyatini tushunadi, biladi, ifodalay oladi, aytib beradi hamda fan bo'yicha tasavvurga ega deb topilganda – 4 (yaxshi) baho;</p> <p>talaba olgan bilimni amalda qo'llay oladi, fanning mohiyatini tushunadi, biladi, ifodalay oladi, aytib beradi hamda fan bo'yicha tasavvurga ega deb topilganda – 3 (qoniqarli) baho;</p> <p>talaba fan dasturini o'zlashtirmagan, fanning mohiyatini tushunmaydi hamda fan bo'yicha tasavvurga ega emas deb topilganda – 2 (qoniqarsiz) baho bilan baholanadi.</p>
6.	<p><b>Asosiy adabiyotlar</b></p> <ol style="list-style-type: none"> <li>1. Хамдамов У. Жаҳон адабиёти. – Т., 2009.</li> <li>2. Зарубежная литература XX века. – М., 2000.</li> <li>3. Норматова Ш. Жаҳон адабиёти. – Т.: Чўлпон, 2008.</li> <li>4. Жўрақулов У. Худудсиз жшва.-Т., 2006.</li> <li>5. Жўрақулов У. Назарий поэтика масалалари: Муаллиф. Жанр. Хронотоп. – Т., 2015.</li> <li>6. У.Жо'рақулов, К.Ҳамроев, Қийосий адабиётшунослик. (О'қув қо'лланма). – Т.: "Lesson press" nashriyoti, 2021. –180 б.</li> </ol>

### Qo'shimcha adabiyotlar

1. Аристотель. Поэтика.-Т.,1980.
2. Афансев А.Н. Дерево жизни.-М., 1982.
3. Голосовкер Я.Логика мифа.-М.,1987.
4. Жўрақулов У. Ўзбек романи генезиси. Монография. – Т: “Nurafshon business”, 2022.
5. История эстетики: Памятники мировой эстетической мысли. В пяти томах.-М., 1964-1970.
6. Комилов Н. Тафаккур карвонлари. – Т., 1999.
7. Конфуцсианство в Китае.-М., 1982.
8. Мифы древней Индии.-М., 1975.
9. Рифтин Б.Л. От мифа к роману.-М., 1979.
- 10.Мелетинский Е.М. Поэтика мифа.-М.,1976.
- 11.Мифологии древнего мира.-М., 1977.
- 12.Сулаймонова Ф. Шарқ ва Ғарб.-Т.,1997.
- 13.Куронов Д., Рахмонов Б. Ғарб адабий-танқидий тафаккури тирихи очерклари.-Т., 2008.

### Internet saytlari

1. [www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz)
2. [www.ziyo.uz](http://www.ziyo.uz)
3. [www. Lib.ru](http://www.Lib.ru).
4. [www.litera.ru](http://www.litera.ru).
5. [www.Philologs.narod.ru](http://www.Philologs.narod.ru).

7.	Fan dasturi Universitet Kengashning 2024-yil ___-avgustdagi __-sonli bayonnomasi bilan ma'qullangan.
8.	<b>Fan/modul uchun mas'ullar:</b> H.Xudoymurodova – TerDU, “O‘zbek adabiyotshunosligi” kafedrasida dotsenti, PhD.
9.	<b>Taqrizchilar:</b> G.Xolliyeva – O‘zDJTU, “Jahon adabiyoti” kafedrasida mudiri, professor, f.f.d. E.Jabborov -“O‘zbek adabiyotshunosligi” kafedrasida katta o‘qituvchisi, filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori.